



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish iqtibollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

ривожланишини таъминлаш, суғурталанувчилар манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда суғурта ташкилотларининг тўлов қобилиятини мустаҳкамлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Фуқоралар транспорт воситаларини суғурталашда ҳайдовчилик стажи ва беталофат ҳаракатланиши ҳамда йул транспорт ҳодисалар содир қилган – қилмаганлигидан келиб чиқиб суғурта тариф ставкаларини дифференцияси қилиб боришни жорий қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Суғурта бозори фаолиятига оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент, 2023.
3. Ширинов И.Ш. Суғурта иши. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2022.
4. Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2018.
5. Аҳмедов Д.Қ. Актуар ҳисоб-китоблар асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2022.
6. Хайдаров Х. Страхование как сфера социальной защиты и цифровизации рынка страховых услуг. Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар журнали-Тошкент, 2025
7. Чернова Г.В. Страхование. – Москва: Юрайт, 2020.

UDK:336.7

**IQTISODIY TARMOQLARDA INNOVATSION G‘OYALAR BANKIDAN
FOYDALANISHNING TAHLILIIY ASOSLARI**

**АНАЛИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БАНКА ИННОВАЦИОННЫХ
ИДЕЙ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТРАСЛЯХ**

**ANALYTICAL FOUNDATIONS FOR THE USE OF AN INNOVATIVE IDEAS BANK IN
ECONOMIC SECTORS**

Maxamadiyev Mexroj Mardon o‘g‘li
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari o‘rganilgan. Innovatsion g‘oyalar banki ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar va startup loyihalarni yagona platformada jamlash, tahlil qilish va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish imkonini beruvchi axborot tizimi sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, analitik platformalar va katta ma‘lumotlar (big data)ning innovatsion jarayonlarni baholash, g‘oyalarni saralash va iqtisodiy samaradorligini aniqlashdagi ahamiyati ta‘kidlangan. Shu orqali iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion g‘oyalar banki, iqtisodiy tarmoqlar, raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari, innovatsion jarayonlar, tahliliy platforma, katta ma‘lumotlar (big data), iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье исследуются аналитические основы использования банка инновационных идей в экономических секторах. Банк инновационных идей рассматривается как информационная система, позволяющая собирать научные разработки, технологии и стартап-проекты на единой платформе, анализировать их и внедрять в экономические сектора. В исследовании подчеркивается важность цифровых технологий, аналитических платформ и больших данных в оценке инновационных процессов, сортировке идей и определении их

экономической эффективности. Это демонстрирует возможности развития инновационной деятельности в экономических секторах, повышения конкурентоспособности и практического внедрения научных разработок.

Ключевые слова: Банк инновационных идей, экономические сектора, цифровая экономика, информационные системы, инновационные процессы, аналитическая платформа, большие данные, экономическая эффективность.

This article studies the analytical foundations of the use of a bank of innovative ideas in economic sectors. The bank of innovative ideas is considered as an information system that allows you to collect scientific developments, technologies and startup projects on a single platform, analyze them and introduce them into economic sectors. The study emphasizes the importance of digital technologies, analytical platforms and big data in assessing innovation processes, sorting ideas and determining their economic efficiency. This shows the possibilities of developing innovative activities in economic sectors, increasing competitiveness and implementing scientific developments in practice.

Keywords: Bank of innovative ideas, economic sectors, digital economy, information systems, innovation processes, analytical platform, big data, economic efficiency.

Jahon amaliyotida hududlar va iqtisodiyot tarmoqlar bo‘yicha yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarining innovatsion g‘oyalar bankini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarda asosan oliy ta‘limda bo‘yicha yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarining innovatsion g‘oyalar bankini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, ta‘lim faoliyatini nazorat qilishda, masofaviy ta‘limni tashkil etishda, zamonaviy darslarni va ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borishda bulutli texnologiyalar, IoT(Internet buyumlar), sun‘iy intellekt va bir qancha raqamli texnologiyalardan foydalanish va amaliyotga joriy etish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ta‘lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o‘shishni tezlashtirish, samaradorlikni oshirish va zamonaviy infratuzilmani yaratish borasida qator yo‘nalish va vazifalar belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi doirasida davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, moliyaviy texnologiyalar, xususan, bank tizimlari, onlayn to‘lovlar, elektron pullar va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, elektron hukumat tizimini joriy qilish orqali aholining davlat idoralari bilan bog‘liq ish jarayonlarini soddalashtirish, axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlari va maxsus IT-markazlar tashkil etish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirish shular jumlasidan hisoblanadi. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi o‘z navbatida mamlakatda oliy ta‘lim faoliyatini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalanish va takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilaydi.[1]

A.N. Kolmogorov va V.V. Ivanov o‘z ilmiy tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion g‘oyalarni shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etishda axborot tizimlari va ma‘lumotlar bazalarining o‘rni juda muhim hisoblanadi. [2]

I.V. Glinova va M.A. Sokolov tadqiqotlarida esa raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayonlarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari yoritilgan. Olimlar innovatsion g‘oyalarni tizimli ravishda saralash, ularning amaliy ahamiyatini baholash hamda iqtisodiy tarmoqlarda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashda analitik platformalar va axborot tizimlaridan foydalanish zarurligini qayd etadilar.[3]


A.G. Aganbegyan o‘z ilmiy ishlarida innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholab, ilmiy ishlanmalar va texnologik yangiliklarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish jarayonida davlat, ilmiy muassasalar hamda biznes subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, innovatsion g‘oyalar banki kabi axborot tizimlari innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi.[4]

B. Yuldashev o‘z ilmiy tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion g‘oyalar va ilmiy ishlanmalarni tizimli ravishda jamlash, tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etish jarayonida raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

Shuningdek, S.S. G‘ulomov o‘z tadqiqotlarida innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslarini keng yoritib bergan. Olimning fikricha, innovatsion g‘oyalarni samarali boshqarish va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, ma’lumotlar bazalari hamda analitik tizimlardan foydalanish zarur hisoblanadi.[6]

Ushbu ishda ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil, grafik tahlil, empirik tadqiqotlarni umumlashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullari asosida olib borildi.

Innovatsion g‘oyalar bankining bir qancha turlari va ularning asosiy vazifalari keltirib o‘tishda ularning tavsifi mazmuni va tahliliy asoslarini ham yoritib o‘tish talab etiladi: Tarmoq (sohaviy) innovatsion g‘oyalar banki tizimning samaradorligini, dolzarbligini va barqarorligini hisobga olgan holda qabul qilinadigan qarorlarni kafolatlovchi ilmiy-va-amaliy prinsiplar majmuasidir. Avvalo, tahliliy asoslarning markazida muammoni aniq identifikatsiya qilish yotadi: har bir g‘oya yoki taklif sohaning qaysi aniq muammosini hal qilishini, uning maqsadli ko‘rsatkichlarini (masalan, mahsulot sifati, ishlab chiqarish qiymati, energiya samaradorligi yoki xizmat ko‘rsatish vaqti) va g‘oyaning ushbu muammoga ta’sir mexanizmini mufassal tavsiflash zarur.



1-rasm. Innovatsion g‘oyalar banki turlari va ularning vazifalari


Hududiy (regional) innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari bu ma’lum bir viloyat, tuman yoki iqtisodiy mintaqa doirasida yaratilayotgan innovatsion tashabbuslarni tizimli ravishda yig‘ish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish uchun ishlab chiqiladigan ilmiy-amaliy

metodologiyalar majmuasidir. Avvalo, hududiy g‘oyalar banki uchun tahliliy yondashuvning markazida mahalliy resurslar, muammolar va imkoniyatlarni aniqlash jarayoni turadi.

Korporativ (korxonalar) innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari bu korxonalar ichida innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish, yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Ushbu tahliliy asos korxonaning strategik maqsadlari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va bozor ehtiyojlarini uyg‘unlashtirgan holda, innovatsion g‘oyalarni tanlash, baholash va amaliyotga joriy etish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Maqsad korxonalar ichida qanday turdagi innovatsiyalarni amalga oshirish mumkinligini aniqlash, ya’ni real imkoniyatlarni baholash. Shu bilan birga, ichki muhitdagi kreativ fikrlashni rag‘batlantirish, g‘oya taklif etuvchi xodimlar uchun moddiy va nomoddiy mukofot tizimini yaratish ham muhim tahliliy yo‘nalishdir.

Uchinchi jihat innovatsion g‘oyalarni yig‘ish, saralash va baholash mexanizmi. Korxonalar miqyosida bu jarayon odatda maxsus platforma yoki ichki elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Xodimlar, bo‘limlar yoki loyihalar jamoasi tomonidan taqdim etilgan g‘oyalar bir necha bosqichda tahlil qilinadi: birinchi bosqichda ularning yangiligi va texnik imkoniyatlari, keyingi bosqichda esa iqtisodiy samaradorligi (ROI, payback period), risk darajasi va bozor salohiyati baholanadi. Eng istiqbolli g‘oyalar sinov (pilot) loyihalari sifatida tanlanadi. To‘rtinchi tahliliy tamoyil bozor tahlili va raqobatbardoshlik bahosi.

Har bir innovatsion g‘oya nafaqat ichki ehtiyojga, balki tashqi bozordagi talab va raqobatchilar faoliyatiga ham asoslanadi. Shu sababli, korxonalar innovatsion g‘oyalar banki doirasida doimiy marketing tahlili olib boradi: iste’molchilar talabi, yangi texnologiyalar tendensiyasi, global raqobatchilar tajribasi va patentlar bozorini o‘rganadi. Bu tahlil g‘oyalarni amaliyotga joriy etishdan oldin ularning tijoriy muvaffaqiyat ehtimolini aniqlashga xizmat qiladi.



2-rasm. Innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanish samaradorligini takomillashtirishning 2024-2030 -yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari

Ushbu tizimning maqsadi turli davlatlar, kompaniyalar va ilmiy markazlar o‘rtasida innovatsion hamkorlikni kuchaytirish, global innovatsion ekotizimni integratsiyalash va texnologik taraqqiyotni tezlashtirishdir. Birinchi tahliliy yo‘nalish global innovatsion siyosat va strategik yo‘nalishlarni

muvofiglashtirishdir. Xalqaro innovatsion g‘oyalar banki turli davlatlarning ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari, inkubatorlari va korporatsiyalari o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiglashtiradi. Shu orqali global miqyosda “innovatsion resurs xaritasi” yaratiladi, ya’ni qaysi mintaqada qanday texnologiyalar, ilmiy kuchlar yoki ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjudligi tahlil qilinadi.

2-rasmda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanish samaradorligini takomillashtirishning 2024-2030 -yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib 1-grafikda uchta o‘shish ssenariysi taqdim etilgan — Pessimistik (qizil, 3%), O‘rtacha (sariq, 5%) va Optimistik (yashil, 7%). 2024 yilda barchasi 1,000,000 dan boshlanadi. Pessimistik ssenariyda 2030 yilga kelib 1,200,000 ga yetadi, O‘rtacha ssenariyda 1,350,000, Optimistik ssenariyda esa 1,650,000 gacha ko‘tariladi. Ssenariylar orasidagi farq vaqt o‘tishi bilan keskin kengayadi — 2030 yilda farq 450,000 ga yetadi.

2-grafikda yillik o‘shish sur‘atlari keltirilgan hamda har bir ssenariy uchun doimiy yillik o‘shish sur‘ati ko‘rsatilgan. Pessimistik 3% (qizil gorizontol chiziq), O‘rtacha 5% (sariq), Optimistik 7% (yashil). Barcha chiziqlar gorizontol va doimiy — bu oddiy o‘shish modeli qo‘llanilganligini bildiradi.

3-grafikda esa kumulyativ o‘shish indeksi 2024 yil bazasi 100 ga tenglashtirilib, keyingi yillar uchun indeks ko‘rsatiladi. Optimistik ssenariyda 2030 yilga kelib indeks 165 ga yetadi (+65%), O‘rtacha ssenariyda 135 (+35%), Pessimistik ssenariyda 120 (+20%). Grafikda har bir ssenariy uchun rangli maydon ko‘rsatilgan.

4-grafik, 2030-yil prognoz ssenariylar taqqoslanishi keltirilgan bunda ustunlik diagramma 2024 yil bazasi (ko‘k punkt chiziq taxminan 1,100,000) bilan taqqoslanadi. Pessimistik ustun 1,131,133 (+12.7/7.08%), O‘rtacha ustun 1,470,000 (+34.0%), Optimistik ustun 1,616,161 (+47.1%) ko‘rsatadi. Har bir ustunga o‘shish foizi yozilgan.

Innovatsion rivojlanish zamonaviy iqtisodiyotning poydevoridir. Ushbu bobda innovatsion g‘oya tushunchasining mazmun-mohiyati, ularning ilmiy-nazariy asoslari hamda axborot tizimlarida qo‘llanilishining zaruriyati batafsil tahlil qilindi. Jumladan, global miqyosda g‘oyalarni yig‘ish, saralash va tijoratlashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ularni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha muhim jihatlar ochib berildi. Xususan, g‘oya banklari modeli orqali yuqori texnologik salohiyatga ega ishlanmalarni aniqlash, tarmoqlar kesimida innovatsion takliflar oqimini boshqarishning ahamiyati asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni. <http://www.lex.uz>
2. Nureev R.M., Karapayev O.V. Innovatsion g‘oyalar bankini shakllantirish va raqamli axborotdan foydalanish. – Moskva: Ekonomika, 2020. – 256 b.
3. Valentey S.D. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning muammolari va katta ma’lumotlar (big data)dan foydalanish tajribasi. – Moskva: Rossiya Iqtisodiyot Universiteti, 2019. – 198 b.
4. Silvestrov S.N., Bauer V.P., Yeregin V.V., Lapenkova N.V. Korxonaning raqamli transformatsiyasi va bozor muhiti: nazariy va amaliy tahlil. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2021. – 312 b.
5. Yuldashev B. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 212 b.
6. G‘ulomov S.S. Innovatsion jarayonlarni boshqarish va raqamli platformalardan foydalanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 178 b.
7. Toshpulatov Sh.R. Innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish va hamkorlik tizimlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021. – 196 b.